

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT URUSHI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F.T.Shaymanov

O'zbekiston Milliy universiteti

1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: fozil. 9296.shaymanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida axborot urushining jamiyat ongiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ochib berilgan. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida axborot urushining raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali tezkor va keng ko'lamda olib borilishi yoritib berilgan. Axborotni manipulyatsiya qilish, yolg'on ma'lumotlar tarqatish va jamoatchilik fikrini boshqarish uning asosiy xususiyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: axborot urushi, tanqidiy tafakkur, ongli mas'uliyat, "bir tomonli haqiqat, media nazorati va propaganda modeli, soxta axborot.

Globallashuv davrida axborot urushi an'anaviy harbiy to'qnashuvlardan farqli ravishda ong, tafakkur va jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Uning asosiy xususiyatlari tezkorlik, chegarasizlik, raqamli texnologiyalarga tayanish hamda axborotni manipulyatsiya qilish imkoniyatining kengayganidadir. Axborot urushi ijtimoiy tarmoqlar, OAV va sun'iy intellekt vositalari orqali olib borilib, jamiyatda ishonchsizlik, noto'g'ri tasavvurlar va ideologik bosimni yuzaga keltiradi. Shu bois u zamonaviy davrda milliy xavfsizlik va axborot madaniyati bilan chambarchas bog'liq global muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Axborot urushi - bu urushning yangi shakli bo'lib, unda axborot ommaviy ongni o'zgartirishga va o'z mamlakati aholisini ham, dushman mamlakat aholisini ham manipulyatsiya qilishga qaratilgan "qurol" sifatida ishlatiladi. Uni qo'llash doirasi


doimiy ravishda kengayib bormoqda, axborot “qurollari”ning yangi turlari va ulardan foydalanishning ancha samarali usullari paydo bo‘lmoqda.

Globalashuv davridagi axborot urushlari shaxssiz va vositachilik bilan kechadi: zamonaviy xaker o‘z raqiblari, kimning saytlarini buzib kirishi haqida o‘ylamaydi ham. G.Pochepsov shunday yozadi: “Axborot urushi harbiy qarshi kurashning eng intellektual variantidir, chunki bu yerda ta’sir qilish subyekti ham, obyekt ham inson ongidir”¹. Ham kuch, ham zaiflik, ham mag‘lub, ham g‘olib odamlarning kognitiv qobiliyatlari bilan belgilanadi. Demak, axborot urushida moddiy resurslardan ko‘ra kognitiv resurslar, ya’ni tafakkur, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, axborot urushlari zamonaviy jamiyatda falsafiy-antropologik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda inson bir vaqtning o‘zida ham ta’sir ko‘rsatuvchi, ham ta’sirga uchraydigan subyektga aylanmoqda. Bu esa globalashuv davrida nafaqat texnologik rivojlanishni, balki ma’naviy yetuklik, tanqidiy tafakkur va ongli mas’uliyatni o‘zida mujassamlashtiradi.

Shunday qilib, axborot urushi ikkita muhim qismni o‘z ichiga oladi: axborot tizimlariga ta’sir qilish va jamoatchilik hamda individual ongga ta’sir ko‘rsatish. Fikrimizcha, mazkur yondashuv axborot urushini zamonaviy dunyoda inson ongini egallash uchun olib boriladigan umumiy kurash sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu kurashda asosiy xavf texnologiyalarda emas, balki insonning o‘zi — uning ishonchi, qarorlari va qadriyatlarida mujassamdir. Shu bois, axborot urushlariga qarshi eng samarali usul sifatida ongiy mustaqillik, falsafiy tafakkur va axborot madaniyatini rivojlantirish deb ta’kidlash lozim.

Zamonaviy falsafada, ayniqsa posthaqiqat konsepsiyasi doirasida, axborot urushini haqiqatni anglashdagi noaniqliklar bilan bog‘lash mumkin. Posthaqiqat konsepsiyasida haqiqatga asoslangan dalillar emas, balki shaxsiy ishonch, emotsiyalar va ijtimoiy kayfiyatlar ustun turadi. Bu esa o‘ziga xos bir qator

¹ Почепцов Г.Г. Информационные войны. Новый инструмент политики. – М.: Алгоритм, 2015. – С. 6.



muammolarga olib keladi. Ya'ni bunda insonlar haqiqatga emas, o'zlariga qulay bo'lgan talqinlarga ishonishni afzal ko'radi. Natijada axborot urushi bilishning obyektiv mexanizmlarini izdan chiqaradi, natijada haqiqat o'rniga turli versiyalar hukmron bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, axborot urushi g'oyat keng qamrovli epistemik va sotsiopsixologik inqirozni ifodalaydi. U bilish jarayonini faqat ma'lumotlar oqimi sifatida emas, balki berilayotgan ma'lumotlarning ma'nolari radikal shubha ostiga olinishi zarur bo'lgan fenomen sifatida ko'rish mumkin. Axborot urushi sharoitida haqiqat statistika, ijtimoiy media, matbuot yoki algoritmik filtrlar orqali emas, balki tanqidiy ong va epistemik javobgarlik asosida shakllanadi. Natijada, haqiqat o'rniga turli versiyalar hukmron bo'lishi, ya'ni bu epistemik pluralizm emas, balki haqiqiy pluralizm ostida yashiringan manipulyativ gegemoniyadir. Bu esa fikrimizcha, insonlarni ma'lum bir dunyoqarashga yo'naltirish, ularni skeptitsizmga yoki apatiyaga olib kelishi, nihoyat, jamiyatda mustahkam ijtimoiy atomizatsiyaga xizmat qildirishi mumkin. Bunday sharoitda haqiqatni himoya qilish faqat epistemik faoliyat emas, balki axloqiy va siyosiy majburiyatdir.

Postmodernist faylasuflar, xususan fransuz faylasuflari Mishel Fuko va Jan Bodriyar fikricha, kuch endi zo'ravonlik orqali emas, balki bilim va axborot oqimi orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, faylasuf M.Fuko nazariyasiga ko'ra, «bilim – bu hokimiyatdir»². Demak, axborot makonida hukmronlik qiluvchi subyekt haqiqatni belgilovchi kuchga ega bo'ladi. Uning fikricha, **bilim va ma'lumot hokimiyatni yaratadi va hokimiyat uni shakllantiradi**, bu zamonaviy axborot kurashlarida ayniqsa dolzarb bo'lgan prinsipdir. Raqiblar obrazini yaratish, siyosiy diskurslar orqali jamiyatlarni bir-biriga qarshi qo'yish faylasuf M.Fukoning tahliliga muvofiq, **nohakam “bir tomonli haqiqat”ni legitimatsiyalash** usuli hisoblanadi. Bu usullar axborot urushining zamonaviy shakllari, ya'ni propaganda, psixologik operatsiyalar va algoritmik boshqaruvda ko'rinadi. Uning falsafasi shuni

² М.Фуко. Археология знания. // Перевод с французского С. Митина. – Киев,1996. – 417 с.

anglatadiki, axborot urushi nafaqat harbiy, balki epistemologik va diskursiv urushdir. Shuningdek, axborot urushiga qarshi eng samarali strategiya bilim va hokimiyat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash, axborot oqimlarini tahlil qilish va tanqidiy savodxonlikni kengaytirishdir.


Bugungi globallashuv davrida axborot urushi jamiyat hayotining ajralmas va hal qiluvchi omiliga aylangan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. U an'anaviy harbiy to'qnashuvlardan farqli ravishda hududiy chegaralarni tan olmaydi, ochiq e'lon qilinmaydi va ko'pincha tinchlik sharoitida olib boriladi. Shu bois axborot urushi globallashuvning tezkorlik, ochiqlik va o'zaro bog'liqlik xususiyatlari bilan chambarchas uzviydir.

Birinchiidan, globallashuv axborot oqimlarini keskin tezlashtirdi va kengaytirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali axborot bir zumda millionlab odamlar ongiga yetib boradi. Natijada axborot urushi global ong makonida kechib, jamoatchilik fikrini shakllantirish, qadriyatlarni o'zgartirish va ijtimoiy kayfiyatni boshqarish vositasiga aylanadi. Bu jarayonda haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegara tobora xiralashib boradi.

Ikkinchiidan, bugungi axborot urushi davlatlararo qarama-qarshilik bilangina cheklanmaydi. Unda transmilliy korporatsiyalar, siyosiy guruhlar, mafkuraviy markazlar va hatto alohida shaxslar ham faol ishtirok etadi. Bu holat axborot urushini markazsizlashgan va shaxssiz kurash shakliga olib chiqadi. Falsafiy jihatdan bu mas'uliyat va ayb tushunchalarining nisbiylashuviga, subyektning mavhumlashuviga sabab bo'ladi.

Uchinchiidan, globallashuv davrida axborot urushining asosiy obyektini inson ongidir. Ta'sir qilish jarayoni nafaqat ongli darajada, balki ongsiz qatlamlarda, ya'ni hissiyotlar, qo'rquv, stereotiplar orqali amalga oshiriladi. Shu bois, g'alaba yoki mag'lubiyat qurol kuchi bilan emas, balki kognitiv va ma'naviy ustunlik bilan belgilanadi.

Amerikalik faylasuf va tilshunos Noam Chomsky zamonaviy dunyoda media va axborot nazorati haqida eng ta'sirli tanqidiy fikrlarni ilgari surgan olimlardan biridir.



Uning qarashlari ayniqsa **axborot urushi** mavzusida juda dolzarb va chuqurdir. Uning fikricha, «zamonaviy davrda urush endi faqat harbiy harakatlar bilan cheklanmaydi. U **siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va kengaytirish uchun axborotni nazorat qilish** shaklida amalga oshiriladi»³. Axborot urushi orqali davlat yoki kuchli subyektlar aholining ongini boshqaradi, muqobil fikrlarni bostiradi va o'z manfaatlarini ilgari suradi. Xususan, u “**Media nazorati va propaganda modeli**”da shuni ta’kidlaydiki, ommaviy axborot vositalari ko‘pincha davlat yoki iqtisodiy elitaning qo‘lida bo‘lib, ular axborotni tahrir qiladi, saralaydi va boshqaradi. Uning nazarida ommaviy axborot vositalari “**soxta erkinlik maydoni**”dir. Chunki ular ko‘plab mavzularda erkin emas, balki ko‘rsatmalarga binoan ishlaydi. Shuningdek, «axborot urushi fuqarolarning **to‘g‘ri va obyektiv axborotga erishishini cheklaydi**, bu esa demokratik jarayonlarning samarali ishlashiga zarar yetkazadi»⁴. Shuning uchun uning nazarida axborot urushlari jamiyatda **passivlik, befarqlik va dezinformatsiya** hosil qiladi. Zero, axborot urushining eng xavfli jihatlaridan biri **haqiqatni buzish, yolg‘onni haqiqat kabi ko‘rsatish**dir. Bu odamlarning dunyoqarashi va qaror qabul qilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni noto‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltiradi.

Rus tadqiqotchi olimlari V.I.Dobrenkov va P.V.Agapovlar axborot urushlarini “yumshoq ta’sir” urushlari deb hisoblaydi. Bunday urushlar “soxta axborot, yolg‘on va aldashga asoslangan bo‘lib, turli xil diversiyalar, ikki tomonlama boshqaruv, maxfiy subtekst va ikki tomonlama standartlarni o‘z ichiga oladi”⁵. Ularning fikricha, “Axborot urushi – bu qo‘yilgan maqsadga erishish manfaatlarini yo‘lida qarama-qarshi tomonning axborot muhitiga ta’sir ko‘rsatish (o‘zini himoya qilish) uchun maxsus (siyosiy, diplomatik, harbiy va boshqa) usullar, uslublar va vositalardan foydalanishni o‘z ichiga olgan tajovuzkorlikning

³ Chomsky N. Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda. – Seven Stories Press, 2002. – P. 54-61.

⁴ Chomsky N. Profit Over People: Neoliberalism and Global Order. – Seven Stories Press, 1997. – P. 21-48.

⁵ Добренъков В.И., Агапов П.В. Война и безопасность России в XXI веке. – М.: Академический проект, Альма Матер, 2011. – С. 72.

shaklidir”⁶. Axborot urushida jamiyatning barcha jabhalaridagi axborot qarama-qarshiligida yutuqqa erishga taraf g‘olib bo‘ladi.

Xulosa qilin aytganda, axborot urushining oldini olish uchun birinchidan **kognitiv qarshilikni rivojlantirish zarur**. Bunda eng avvalo haqiqatni anglash va manipulyatsiyalarga qarshi kurashish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish lozim. Ikkinchidan, **axborot erkinligini saqlash** va uni yanada mustahkamlash shart. Bu jarayonni amalga oshirishda eng birinchi navbatda axborot makonida erkinlikni ta’minlash, lekin shu bilan birga noto‘g‘ri ma’lumotlar va manipulyatsiyalarga qarshi kurashish muhimdir. Uchinchidan **axloqiy me’yorlarni aniq belgilash zarur**. Ya’ni axborot urushining axloqiy chegaralarini belgilash va ularni xalqaro huquq bilan mustahkamlash darkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Почепцов Г.Г. Информационные войны. Новый инструмент политики. – М.: Алгоритм, 2015. – С. 6.
2. М.Фуко. Археология знания. // Перевод с французского С. Митина. – Киев, 1996. – 417 с.
3. Chomsky N. Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda. – Seven Stories Press, 2002. – P. 54-61
4. Chomsky N. Profit Over People: Neoliberalism and Global Order. – Seven Stories Press, 1997. – P. 21-48.
5. Добренъков В.И., Агапов П.В. Война и безопасность России в XXI веке. – М.: Академический проект, Альма Матер, 2011. – С. 72.

Добренъков В.И., Агапов П.В. Война и безопасность России в XXI веке. – М.: Академический проект, Альма Матер, 2011. – С. 74

⁶Добренъков В.И., Агапов П.В. Война и безопасность России в XXI веке. – М.: Академический проект, Альма Матер, 2011. – С. 74.